

O‘SMIRLIK DAVRIDA TARBIYA OG‘ISHINING OLDINI OLISHDA OTA- ONANING O‘RNI

Rustamova Dilrabo Jabaraliyevna

Namangan davlat pedagogika instituti

Pedagogika nazariyasi va tarixi yo‘nalishi magistranti.

Tel:+998930652528

D61444661@gmail.com

Ilmiy rahbar: B.Qayumov

Namangan davlat pedagogika instituti o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada o‘smirlik davridagi psixofiziologik o‘zgarishlar va bu davrda emosional sohaning shakllanish jarayonlari taxlil qilingan. Tadqiqotda oila muhitining farzand tarbiyasidagi o‘rni hamda, ota-ona va farzand o‘rtasidagi munosabatlarning o‘smir ruhiyatiga ta’siri yoritib berilgan. Bu davr muammolarining sabablari va ularni bartaraf etish bo‘yicha tavsiyalar ko‘rsatib berilgan.

Kalit so‘zlar : o‘smirlik, tarbiyada og‘ishlik, ota-ona, agressiv, impulsiv, profilaktika.

РОЛЬ РОДИТЕЛЕЙ В ПРЕДОТВРАЩЕНИИ ПРОБЛЕМ ПОДРОСТКОВОГО ПЕРИОДА

Аннотация: В статье анализируются психофизиологические изменения в подростковом возрасте и процессы формирования эмоциональной сферы в этот период. В исследовании освещается роль семейной среды в воспитании ребенка, а также влияние отношений между родителями и детьми на психику подростка. Приводятся причины этих проблем и рекомендации по их устранению.

Ключевые слова: подростковый возраст, воспитание, родитель-ребенок, агрессивный, импульсивный, профилактика.

THE ROLE OF PARENTS IN PREVENTING ADOLESCENCE ISSUES

Annotation: The article analyzes psychological and physiological changes during adolescence and the processes of emotional field formation during this period. The study highlights the role of the family environment in child upbringing, as well as the impact of parent-child relationships on the adolescent's psyche. The causes of these problems and recommendations for their prevention are also provided.

Keywords: adolescence, upbringing, parent-child, aggressive, impulsive, prophylaxis

KIRISH

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning “Tarbiya qanchalik mukammal bo‘lsa, xalq shuncha baxtli yashaydi”, tarbiya mukammal bo‘lishi uchun esa bu masalada bo‘shliq paydo bo‘lishiga mutlaqo yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi” degan ta’kidlari, yurtimizda

yoshlar tarbiyasiga alohida e'tibor berilayotganligining dalolatidir. Farzand tarbiyasi bu murakkab va ko'p qirrali jarayondir.

Bolaning shaxs sifatida shakllanishida, dunyoqarashining rivojlanishida, ahloqiy qadriyatlarning o'zlashtirishi va jamiyatda o'z o'rnini topishida ota-onaning roli cheksizdir. Ota-onaning tarbiyaviy ta'siri bola hayotining har bir bosqichida sezilib turadi. Farzand tarbiyasida ota-onaning roli har doim muhim bo'lib kelgan va bugungi kunda ham dolzarbligini yo'qotmaydi. Global o'zgarishlar texnologiyalarning rivojlanishi va jamiyatdagi o'zgarishlar ota-onalar zimmasiga yanada katta mas'uliyat yuklaydi. Bugungi kunda ko'plab oilalarda farzand tarbiyasida duch kelinayotgan muammolardan biri bu bolalarning tarbiyasidagi og'ishlikdir. Zamonaviy oilalarda tarbiyaviy jarayondagi metodik va psixologik uzilishlar dolzarb masala sifatida ko'rilmogda.

ADABIYOTLAR TAXLILI VA NAZARIY ASOSLAR

Jamiyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida ham davr talabiga munosib bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash muammosi hamisha dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan. Tadqiqotchilar tomonidan ota-onaning tarbiyaviy funksiyalari doimiy o'rganilib kelinmogda. Ota-onaning tarbiyaviy ahamiyati nafaqat zamonaviy pedagogikada, balki tarixiy manbalarda ham keng yoritilgan. Xususan, Yusuf Xos Hojib, Kaykovus, Abu Ali Ibn Sino, Abu Nasr Farobiy, A Navoiy, A. Avloniy kabi sharq allomalari, Jon Lokk, Jan Jak Russo, Yan Amos Komenskiy, Konstantin Dmitriyevich Ushinskiy kabi g'arbning buyuk namoyondalarining tarbiya, odob-ahloq haqidagi qarashlari pedagogik tafakkurni rivojlanishiga hissa qo'shgan.

Psixologik nuqtai nazardan esa o'smirlik davri xususiyatlari borasida o'zbek psixologlaridan M.G. Davletshin, M.V. Vohidov, E.G'oziyev g'arb psixologlaridan, L.S. Vigotskiy, Erik Erikson, Jan Piaget nazariyalari asosiy manbani tashkil etadi. Tadqiqotimizda sharq va g'arb mutafakkirlarining o'smirlik davri va tarbiya borasidagi qarashlardan foydalanildi. Ushbu qarashlar asosida ota-onaning tarbiyaviy ta'siri va uning og'ishlikni oldini olishdagi roli tahlil qilindi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

O'smirlik 10–11 yoshlardan 14–15 yoshlargacha bo'lgan davrni tashkil etadi. Hozirgi o'smirlar o'tmishdoshlariga nisbatan jismoniy, aqliy va siyosiy jihatdan

birmuncha ustunlikka ega. Ularda jinsiy yetilish, ijtimoiylashuv jarayoni, psixik o'sish oldinroq namoyon bo'lmoqda. Bu bosqichda bolalarning jismoniy va psixik taraqqiyoti juda tezlashadi, hayotdagi turli narsalarga qiziqishi, yangilikka intilishi ortadi, xarakteri shakllanadi, ma'naviy dunyosi boyiydi, ziddiyatlar avj oladi. O'smirlik balog'atga yetish davri bo'lib, yangi hislar, sezgilar va jinsiy hayotga taalluqli chigal masalalarning paydo bo'lishi bilan ham xarakterlanadi. Bu yoshda o'smir rivojida keskin o'zgarishlar ro'y bera boshlaydi. Bu o'zgarishlar fiziologik hamda psixologik o'zgarishlardir. Og'iz bo'shlig'i, halqumdagi o'zgarishlar oqibatida tovush tembi o'zgaradi.

Bu o'g'il bolalarda qiz bolalarga nisbatan ko'proq darajada sodir bo'ladi. O'g'il bolalarning tovushi vazmin bo'lib qoladi, do'rillaydi. O'smirlarda bu hatti-harakatlar ularning beso'naqay hatti-harakatlariga, yurish-turishdagi qo'polikka, katta-katta odim tashlashlariga sabab bo'ladi. Fiziologik o'zgarish jinsiy yetilishning boshlanishi va bu bilan bog'liq ravishda tanadagi barcha a'zolarining mukammal rivojlanishi o'sishi hujayra va organizm tuzilmalarining qaytadan shakllanishida namoyon bo'ladi. Bu davrda ayniqsa jinsiy bezlar faoliyati kuchayadi.

O'smirda ro'y beradigan biologik-jismoniy o'zgarish natijasida uning psixik dunyosida tub burilish nuqtasi vujudga keladi. O'smirlik yoshida uning xulq-atvoriga xos bo'lgan alohida xususiyatlarni jinsiy yetilishning boshlanishi bilan izohlab bo'lmaydi.¹ O'smirlarning ehtiyojlari va imkoniyatlarining o'zaro mos kelmasligi o'smirlar bilan ota-onalari, o'qituvchilari va boshqa murabbiylari o'rtasida qarama-qarshilikni keltirib chiqaradi. O'smir o'zining juda ko'p istaklari, «xohlayman»larini amalga oshirishga, katta yoshli odamlar ega bo'lgan hamma narsalardan foydalanishga, erkin, mustaqil va ozod bo'lishga intiladi. Tevarak-atrofdagi odamlarga o'zining ahamiyatga ega ekanini ko'rsatish uchun u kuchli, qo'rqmas va epcil bo'lishga intiladi. Tarbiyachilar ham o'z tarbiyalanuvchilari xuddi shunday bo'lishlarini istaydilar, ammo ular ana shu fazilatlarning faqat «kerakligi» uchun shunday bo'lishini istaydilar. Ana shunday «xohlayman» va «kerak» o'rtasidagi qarama-qarshiliklar ba'zan oilada, maktabda keskin ziddiyatli vaziyatlarni yuzaga keltiradi. Tarbiyalangan odamda «xohlayman» faqat «kerak»ni bajarish orqaligina amalga oshiriladi. Agar o'smir bola tushunishga o'rgatilmagan bo'lsa va «kerak»

bo'lgan narsani bajarishga odatlanmagan bo'lsa, u o'zboshimchaligini namoyon qilish orqali tarbiyachilarning talablariga qarshilik qiladi hamda o'zining shaxsiy asoslanilmagan xohishlari asosida ish tutadi.

O'smir avval bajonidil bajaradigan talablarga endi qarshilik ko'rsata boshlaydi. Uning mustaqilligini cheklashganda, vasiylik qilishganda, yo'naltirishganda, nazorat qilishganda, quloq solishni talab qilishganda, jazolashganda, uning qiziqishlari, munosabatlari va fikrlari bilan hisoblashishmaganda u juda xafa bo'ladi va norozilik bildiradi. Kattalarga nisbatan qo'pol munosabatning paydo bo'lishi, noxush xulq-atvor alomatlari, o'smir yashaydigan ijtimoiy shart-sharoitlar, uning tengdoshlari va turli jamoalardagi mavqei, kattalar bilan munosabati, maktab va oilasidagi munosabatlari sababli yuzaga keladigan xarakter belgilaridir. Mana shu ijtimoiy sharoitlarni o'zgartirish yo'li bilan o'smirlarning xulq-atvoriga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatish mumkin.

O'smirlarda yuzaga kelgan muammolarni tez va operativ holda yechish malakasini shakllantirish birmuncha qiyinroq kechadi. Albatta, bu bolaning temperamentiga ham bog'liq. Barcha o'smirlarni tez harakat qilishga o'rgatish mushkul, lekin ularni biror muammo yuzaga kelishi bilan orqaga chekinmay, zudlik bilan muammoni yechishning umumiy qoidalariga o'rgatib borish mumkin. O'smirlarning ota-onasi, kattalar bilan qiladigan muloqoti xarakteri ularning katta bo'lganlik hissi asosida tuzilgan bo'ladi. Kattalar tomonidan qilinadigan o'smirlarning haq-huquqlarini cheklashlariga bildirgan qarshilik va e'tirozlariga o'zlari ham qattiq qayg'uradilar. Ular muloqotda kattalarning qo'llab-quvvatlashlariga ehtiyoj sezadilar. Birgalikdagi faoliyat o'smiringa kattalarni yaxshiroq tushunishlari uchun yordam beradi. O'smir o'zida bo'layotgan o'zgarishlar, uni tashvishga solayotgan muammolar haqida kattalar bilan bo'lishishga katta ehtiyoj sezadi, lekin buni hech qachon birinchi bo'lib o'zi boshlamaydi. O'smir va kattalar orasida qulay munosabatlarni o'rnatishning zaruriy sharti kattalarning tashabbusi bilan ular hayotida umumiylikni yaratish, hamkorlik sohalarini kengaytirish, mazmunli aloqalarni amalga oshirish, o'zaro yordam va ishonch muhitini yaratishdan iborat.

O'smir o'ziga nisbatan yosh bolalardek qilinadigan muomala-munosabatiga qattiq norozilik bildiradi, o'smirlar muloqoti nihoyatda o'zgaruvchanligi bilan xarakterlanadi. O'smir va kattalar orasida qulay munosabatlarni o'rnatishning zaruriy sharti kattalarning tashabbusi bilan ular hayotida umumiylikni yaratish, hamkorlik sohalarini kengaytirish, mazmunli aloqalarni amalga oshirish, o'zaro yordam va ishonch muhitini yaratishdan iborat. O'tkazilgan kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, o'smirlik davri yoshidagi o'quvchi-yoshlarda agressivlik, odob-ahloq qoidalariga bo'ysunmaslik, e'tibortalablik, muloqotga ehtiyoj, impulsiv hatti-harakatlar ,yig'loqilik, tushkunlik, sukunat, injiqlik, qaysarlik, emosional hatti-harakatlar, tashqi ko'rinishga e'tibor berish kuzatildi. Bunday bolalarga so'zga kirmaslik, o'jarlik, tajanglik, o'z kamchiliklarini tan olmaslik, urushqoqlik kabi salbiy xususiyatlari ham xosdir. O'smir yoshidagi tarbiyasi og'ishgan bolalar hammadan o'zgarib turishni hohlaydi. Kiyinish, bilimga intilishda, muloqotda, tashqi ko'rinishga e'tiborda buni yaqqol kuzatish mumkun. O'smirlik davrida tarbiya og'ishining kelib chiqish sabablari sifatida quyidagilarni keltirishimiz mumkun.

1. Oilaviy omillar : Oilada ota-ona va farzand o'rtasidagi munosabatlar farzandning shaxs bo'lib shakllanish jarayonida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ota-onaning farzandga nisbatan salbiy munosabati, emosional beqarorligi bolaning psixologik holatida xavotirlanish, depressiyani keltirib chiqaradi. Ota-onalar o'rtasidagi doimiy nizolar esa o'smirning agressivlashib qolish sabablaridan biridir. Oila ichidagi emosional muhitning salbiyligi, farzandning ijtimoiylashuvi va hissiy intellektiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'smirning individual psixofiziologik xususiyatlari va temperamentini inobatga olmagan holda amalga oshirilgan tarbiya jarayoni bolada psixologik qarshilik va munosabatlarning buzilishiga sabab bo'ladi. Ayniqsa, farzandning tengdoshlari, aka-ukalari bilan doimiy taqqoslanishi, tanqidi, e'tiborsizligi bolani ota-onadan uzoqlashtiradi. Bu holatlar bolani ko'cha yoki yoki salbiy guruhlar bag'riga itaradi. Ota-onalarning ajralishi, ota-onaning ichkilikka, shahvoniy hayotga berilishi, ota-onaning o'ta qattiqqo'l yoki haddan tashqari

beparvoligi, ota-ona bilan o'smir o'rtasida samimiy suhbat yo'qligi, ularning buyruq ohangida farzandi bilan suhbat bunga misoldir.

2. Maktab ta'lim muassasasi omillari: O'qituvchining o'quvchi bilan individual ishlash malakasining yo'qligi, o'quvchining fanlarni o'zlashtira olmasligi, o'qishdan zerikishi, sinf jamoasidagi janjallar, jamoada o'zini tuta olmasligi. O'qituvchining o'quvchiga noto'g'ri munosabati darsga qiziqishini, o'ziga bo'lgan ishonchni pasaytiradi. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasida ishonchli munosabat o'quvchining o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi.

3. Ijtimoiy muhit omillari: nodavlat tashkilotlar, mahalla ,yashash muhitning salbiy ta'siri. O'quvchining oilasi yashaydigan mahalla muhiti, turli nodavlat tashkilotlarining bolaga ta'limiga ko'maklashishi bola tarbiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

4. Shaxsiy psixologik omillar: o'ziga ishonchsizlik, o'zini yaxshi ko'ra olmaslik, xavotir, qo'rquv, nevrotik holatlar, o'ylamasdan ish ko'rish, xissiy tartibsizlik, travmatik tajribalar, qo'rqinchli xodisalar, yaqinlarining vafoti, ijtimoiy ko'nikmalarning rivojlanmaganligi, diqqat yetishmasligi. O'smirning xavotir, stress, tushkunlik holatida bo'lishi uning diqqatni jamlay olmasligiga va o'zlashtirishini pasayishiga olib keladi.

5. Biologik va psixofiziologik omillar: miya rivojlanishidagi kamchiliklar, organizmning stressga javoban reaksiyasi.

6. Zamonaviy ijtimoiy muhit omillari: ijtimoiy tarmoqlar ,ommaviy axborot vositalari. Ota-onalar tarbiya bilan shug'illanayotgan bir paytda ,internetdagi noto'g'ri ma'lumotlar ham tarbiyani buzishi mumkun. Xususan, raqamli media va ijtimoiy tarmoqlarning nazorat qilinmagan ta'siri bolaning tarbiyasiga salbiy ta'sirini ko'rsatadi.

O'smirlik davrida shaxs rivojlanishi jadal kechadi. Bu davrda emotsional soha faol rivojlanadi, ammo o'z-o'zini nazorat qilish va qaror qabul qilish mexanizmlari hali to'liq shakllanmagan bo'ladi. O'smirlar tashqi ta'sirlarga sezgir va ta'sirchan ,ba'zan esa impulsiv bo'ladi. Shaxsiy chegaralarni anglash shu davrda shakllanib boradi. O'smirlarda, o'z fikrini himoya qila olmaslik, "yo'q" deyishda qiynalish, boshqalar ta'siriga tez berilish, agressiv, passiv xulqning namoyon bo'lishi ,

konfliktlarga tez kirishishi, o'zini ishonchsiz yoki noqulay xis qilish holatlari kuzatiladi. Shu sababdan o'smirlar bilan munosabatlarda ularni tanqid qilmaslik, shaxsiy hududini xurmat qilish, ortiqcha nazorat va bosim qilmaslik, ishonchli va ochiq muloqotni ta'minlash muhimdir.

Kattalarning o'smir yoshdagilarga ta'sir ko'rsatishi, tarbiya berishi uchun eng qulay sharoit – bu umumiy mehnat bilan shug'ullanishdir. Agar kichik yoshdagi bolalar yordamchi bo'lish rollaridan qoniqsalar, o'smirlar, ayniqsa katta o'smirlar kattalar bilan teng ravishda faoliyat ko'rsatayotganlaridan, lozim bo'lganda ularning o'rnilariga ham ishlay olishlaridan qoniqadilar. Kattalar o'smirlar bilan do'stona, uni to'la tushungan holda va aql bilan rahbarlik qilsalar, bunga o'smirlar ijobiy qaraydilar, lekin bu rahbarlik kattaning xohish-istagi ustunligida kechsa, unday holda ular to'la qarshilik ko'rsatadilar. Bu qarshilik ko'pincha salbiy natijalarga, ba'zan depressiya holatini ham yuzaga keltirishi mumkin. Bu holat ko'pincha ota-onasi avtoritar munosabatda bo'luvchi o'smirlarning oilalarida uchraydi. Bunday oilalarda tarbiyalanayotgan o'smirlar hayotda mustaqil holda harakat qilishlari, o'z rejalarini amalga oshirishlari, qiyin mas'uliyatni o'z zimmalariga olishlari birmuncha qiyin kechadi. Ular ko'pincha intellektual xarakterdagi muammolarni ham qiyinchilik bilan yengadilar.

Tarbiya inson uchun kurash demakdir. Bolaning qanday bo'lishi –bu shaxsiy ish bo'lmay, balki jamoatchilikni qiziqtirgan muammodir. Bolani tarbiyalaganda, u qilgan ishining mohiyatini yaxshi anglamasligi oqibatida nima bilan tugashini hali tasavvur qila bilmasligini hisobga olish ham muhim. O'smir farzandi bor ota-onalarning profilaktik vazifalari sifatida quyidagilarni tavsiya etamiz:

1. Ochiq muloqotni rivojlantirish. Farzand bilan doimiy va samimiy muloqot qilish, ularning fikrini tinglash, inobatga olish, ularga xurmat bilan qarash.

2. Qo'llab –quvvatlovchi va ishonchli muhitni yaratish. Bola ota-onasiga ishonishi uchun ularni har doimo yonida ekanligini xis qildirish ,yordamga tayyorligini ko'rsatish.

3.O'zini namuna qilib ko'rsatish. Ota-ona o'z xulqi, munosabati bilan bolaga ta'sir qiladi. Samimiyatlik, halollik, rostgo'ylik, mas'uliyat, sabr kabi fazilatlarni o'zida namoyon etish.

4.Bolaning shaxsiy dunyosiga xurmat. Har bir bolaning o'ziga xos qiziqishlari, fikrlari bo'lishi mumkin. Ularni tushunishga harakat qilish.

5. Qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish. Bola xato qilganda yoki qiynalganda uni haqoratlash o'rniga qo'llab quvvatlash va to'g'ri yo'lni ko'rsatish.

6. Xatolardan saboq olishga undash. Bolani xatolarni tushunib, ulardan to'g'ri xulosa chiqarishga yordam berish.

7.Internet va ijtimoiy tarmoqlardan foydalanishini nazorat qilish, bolalarga ulardan to'g'ri foydalanishni o'rgatish.

8.Ortiqcha nazoratdan saqlanish lozimdir.

XULOSA

O'smirlik davri inson psixologiyasining eng murakkab va o'zgaruvchan bosqichidir. O'smir yoshdagi bolada og'ishlik ichki yolg'izlik va tushinilmaslikdan kelib chiqadi. Agar ota-ona bola bilan emosional aloqani saqlab qolsa ,bola o'z tuyg'ularini tashqi agressiya orqali emas, balki suhbat orqali chiqarishni o'rganadi.

Ota-onalar nazorat qiluvchi emas, balki yo'naltiruvchi rolini o'ynashi kerak. O'smirga o'z qarorlarini qabul qilish imkonini berishi, lekin uni javobgarlikni xis qilishga o'rgatish lozim. Yoshlar, ota-onaning gaplariga emas, balki qilayotgan ishlariga qaraydi. Og'ishlik ko'pincha ma'naviy bo'shliqdan kelib chiqadi. Ota-ona bolaga faqat "nima qilish mumkin emasligini" emas, "nima uchun yaxshi bo'lish kerakligini" tushuntirib berishi lozim. O'smirlik davrida og'ishlikni oldini olishda, ota-onaning roli qayta tarbiyalamaslik emas, balki hamrohlik qilishdir. Og'ishlikni jazolash bilan emas, balki uning sabablarini tushunib , muloqot madaniyatini o'rnatish orqali bartaraf etish mumkin. Oila bu –bola o'z xatolarini tuzatish mumkin bo'lgan, lekin hech qachon tashlab qo'yilmaydigan xavfsiz muhit bo'lishi shart. Ota-ona farzand uchun dunyodagi eng muhim shaxs. Ularning qo'li bilan tarbiyalangan bola barkamol shaxs bo'lib voyaga yetadi,jamiyatga o'z xissasini qo'shadi. Shuning uchun ota-onalik masuliyatini chuqur anglab yetish va uni to'la to'kis ado etish har bir oilaning burchidir.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Djurayeva S. N. Turdiyeva N. S. Baxronova A.I. "Tarbiyaviy ishlar metodikasi" o'quv qo'llanma. Buxoro – 2021 .
2. Do'monova Dilfuza O'ktam qizi "Tarbiyasi og'ishgan bolalar psixologiyasi" // "Ustozlar uchun" 86-son 6-to'plam. 2025.
- 3.E.G'oziyev "Ontogenez psixologiyasi" Toshkent 2020.
4. Z.T.Nishanova, N.G.Kamalova, D.U.Abdullayeva, M.X.Xolnazarova "Rivojlanish psixologiyasi" Toshkent 2018.
5. I.M.Xakimova "Deviant xulq-atvor psixologiyasi " O'quv qo'llanma.Toshkent 2014
6. L.Olimov, A.Nazarov "Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi" Toshkent 2020. 7.O'M.Asqarova, M.Xayitboyeva.